

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

FERUZA XAKIMOVA

“MAXSUS CHOLG‘U”

(Afg‘on rubobi sinfi uchun)

5111000 - Kasb ta’limi (5151600 - Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi)
ta’lim yo‘nalishi uchun o‘quv qo‘llanma))

Тошкент 2019

UDK:431.364.33

KBK: 85.316

X-30

Mazkur o'quv qo'llanma 5111000-Kasb ta'limi (5151600-Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi)) ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi asosidagi "Maxsus cholg'u" fanining afg'on rubob sinfi uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanmada afg'on rubobi cholg'usi tarixidan qisqacha ma'lumot, cholg'uning shakllanishi va rivojlanishi, sozandalarning ijrochilik faoliyatlari tahlil etilgan. Afg'on rubobi cholg'usi bo'yicha dastlabki ijro etish malakalarini egallash va kelgusida xalq kuylari, bastakorlar asarlari, maqomlar hamda sharq xalq kuylarini o'zlashtirishi va ansambl ijrosi uchun tavsiyalar berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmadan "Xalq cholg'ularini o'rganish" fani hamda "Maxsus cholg'u" fanlarida oliy o'quv yurtlari talabalari foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

M.G'opurov - O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Cholg'u ijrochiligi" kafedrası dotsenti

K.Azimov O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Xalq
cholg'ularida ijrochilik" kafedrası professori

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Ilmiy kengashining
2019-yil 9 - fevraldagi yig'ilishida (133-sonli bayonnoma) nashrga
tavsiya etilgan.**

ISBN: 978-9943-56-648-4

© «Navro'z» nashriyati 2017

Kirish

Inson tarbiyasi, uni kamolga yetkazish muammosi har doim ham eng muhim vazifalardan hisoblangan. Boshqacha soʻz bilan aytganda insoniyatning kelajagi, ijtimoiy taraqqiyotning omili avvalo taʼlim-tarbiya va shakllangan maʼnaviy-maʼrifiy muhitga bogʻliqdir. Shubhasiz, bunda yoshlar tarbiyasi, ular tafakkuridagi oʻzgarishlar muhim ahamiyatga ega.

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab, mamlakatimizda taʼlim-tarbiyaning eng taʼsirli vositalaridan biri boʻlmish musiqa sanʼatiga jiddiy eʼtibor qaratilib, musiqiy taʼlim-tarbiya tizimi tubdan isloh qilindi. Islohotlarga “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asos boʻldi.

Madaniyat sohasini izchil rivojlantirish, jahon miqyosidagi ijobiy tajriba va tendensiyalar, yutuq va natijalarni har tomonlama chuqur oʻrganish asosida madaniyat va sanʼat muassasalari faoliyatini samarali yoʻlga qoʻyish, ularning tarmogʻini kengaytirish, moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlash masalalariga alohida eʼtibor berilib, 2002 yilda Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining farmoniga binoan Toshkent davlat konservatoriyasiga - “Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi” maqomi berildi.

2012 yil 4 iyundagi PQ–1771-sonli qarori bilan Toshkent davlat sanʼat instituti va Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti negizida yangi “Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti” tashkil etildi. Ularga jahon andozalari asosida yangidan maxsus binolar barpo etilib, zamonaviy jihozlar bilan taʼminlandi.

Mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlar qatori madaniyat va sanʼat, adabiyot, ommaviy axborot vositalari rivojiga katta eʼtibor

berilmoqda. Ayniqsa, keyingi paytda bu soha ravnaqini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Xalqimizning boy madaniy merosini tiklash va o'rganish maqsadida bir qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. 2017 yil 3 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda milliy madaniyatimiz, adabiyot va san'atimizni rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb masalalar, ularni hal etish yo'llari, bu borada ijodiy uyushmalar va davlat tashkilotlari oldida turgan muhim vazifalar haqida atroflicha fikr almashildi.

Davlatimiz rahbarining uchrashuvdagi ma'ruzasida madaniyatimiz va san'atimizning rivojlanish jarayonlari, bu boradagi ijobiy tendensiyalar bilan birga, ayrim salbiy holatlar, ularning jamiyat hayotiga ta'siri xolisona va tanqidiy baholanib, o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida atroflicha fikr yuritildi. Ijodiy uyushmalar, Madaniyat vazirligi hamda uning tarkibidagi birlashma va tashkilotlar faoliyati chuqur tahlil etildi.

Ijodkor ziyolilarning bugungi kunda jamiyat hayoti, islohotlar jarayonidagi o'rni va vazifasi haqida muhim va dolzarb fikrlar bayon qilindi.

Prezidentimiz xalqimizning ma'naviy kamolotida ijodkorlarning xizmati beqiyos ekanini alohida ta'kidlab, taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida barcha sohalar vakillari qatori madaniyat va san'at ahlidan ham yanada faollik, yangi-yangi ijodiy g'oya va tashabbuslar bilan yashash, izlanish ruhi talab etilayotganini ta'kidladi. Prezidentimiz bo'lib o'tgan ochiq va samimiy muloqotning ahamiyati, mantiqiy natijasi haqida so'z yuritib, **“Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas**

qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”¹, degan fikrni qat’iyat bilan ta’kidladi.

Shu bilan birga oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, PQ-2909-son qarori qabul qilindi.

Qabul qilingan qarorga ko‘ra, oliy ta’lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishda har bir oliy ta’lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi tursdosh ilmiy-ta’lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo‘lga qo‘yish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta’lim muassasalaridagi ixtisoslik yo‘nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo‘yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, yangi avlod o‘quv qo‘llanmalarini yaratish va oliy ta’lim tizimiga keng tatbiq etish hamda oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash eng muhim vazifalari etib belgilab olindi.

¹ Xalq sozi gazetasi 2017й. 4 августъ .